IJTIMOIY YOLG‘IZLIK VA BEGONALASHUV KADRLAR SALOHIYATIGA FALSAFIY-ONTOLOGIK TAHLIL

Temirova Nilufar Erkinovna
Guliston davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv fenomenlari falsafiy-ontologik va aksiologik jihatdan tahlil qilinib, ularning kadrlar salohiyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. G.V.F.Gegel, K.Marks, E.Durkheim, M.Xaydegger, J.P.Sartr, A.Xonneth va V.Frankl falsafiy merosiga tayanib, ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuvning ontologik ildizlari, ekzistensial o‘lchamlari hamda aksiologik oqibatlari ochib beriladi. Zamonaviy jamiyatda ushbu hodisalarning kuchayishi kadrlar salohiyatini eroziyaga uchratishi, mutaxassislarning kasbiy identifikatsiyasini zaiflashtirib, jamiyat barqarorligiga tahdid solishi falsafiy jihatdan asoslab ko‘rsatiladi. O‘zbekiston kontekstida milliy-madaniy omillar va mahalla institutining roli alohida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy yolg‘izlik, begonalashuv, ontologiya, kadrlar salohiyati, ekzistensial vakuum, anomiya, tan olinish, Das Man, Gattungswesen, jamiyat barqarorligi.

KIRISH. Ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv muammosi falsafiy tafakkur tarixida Geraklit va Arastu zamonlaridan beri munozara markazida turgan. “Inson — ijtimoiy mavjudot” degan Arastu ta’rifi o‘z-o‘zidan uning ziddini — ijtimoiylikdan mahrum bo‘lish, ya’ni begonalashuv muammosini — falsafiy kun tartibiga qo‘ygan. XX asrda ushbu muammo ekzistensializm, fenomenologiya va tanqidiy nazariya oqimlarida markaziy falsafiy masalaga aylandi. XXI asrda esa texnologik revolyutsiya va globallashuv sharoitida yangi, o‘tkir va paradoksal ko‘rinish kasb etmoqda.

Paradoks shundaki, insoniyat tarixida hech qachon odamlar bir-biriga bu qadar “yaqin” bo‘lmagan — internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya millionlab insonni bir lahzada bog‘lay oladi. Shunga qaramay, sotsiologik tadqiqotlar XXI asr insonining yolg‘izlik darajasi hech qachon bu qadar yuqori bo‘lmaganini ko‘rsatmoqda. Bu paradoks o‘z-o‘zida falsafiy tafakkurni talab qiladi: yolg‘izlik — bu odamlar soni emas, munosabatlarning sifati va chuqurligi masalasidir.

Kadrlar salohiyati nuqtai nazaridan esa ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv muammosi yanada strategik ahamiyat kasb etadi. Jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan asosiy kuch — insonning ijodiy, intellektual va ijtimoiy salohiyati — begonalashuv sharoitida so‘nadi. Begonalashgan mutaxassis o‘z mehnatini ma’nosiz, o‘z jamoasini begona, o‘z kelajagini umidsiz his etadi. Bu holat kadrlar salohiyatini ichidan eroziyaga uchratuvchi eng xavfli jarayondir.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuvni falsafiy-ontologik metodologiya asosida tahlil qilish, ularning kadrlar salohiyatiga ta’sir mexanizmlarini ochib berish hamda O‘zbekiston sharoitida profilaktika yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Gegel va Marks: begonalashuvning ontologik asoslari. Begonalashuv tushunchasini falsafiy kategoriya sifatida birinchi bor tizimli ishlab chiqqan mutafakkir Georg Vilgelm Fridrix Gegeldir. Gegel (1807) o‘zining “Ruh fenomenologiyasi” asarida begonalashuvni “Entfremdung” mutlaq ruhning o‘z-o‘zidan ajralib, moddiy olamga singib ketishi, so‘ng o‘z-o‘ziga qaytishi sifatida talqin qiladi. Gegel uchun begonalashuv — bu dialektik jarayonning zaruriy bosqichi, o‘z-o‘zini anglashning muqarrar yo‘li. Biroq ushbu idealistik talqin Marks tomonidan tubdan o‘zgartirildi.

Karl Marks (1844) “Iqtisodiy-falsafiy qo‘lyozmalar”ida Gegel sxemasini “oyog‘idan” “boshiga” qaytaradi: u begonalashuvni ruhning emas, balki tirik insonning konkret tarixiy sharoitda yashovchi ishchining muammosi sifatida ko‘radi. Marks begonalashuvning to‘rt shaklini ajratib ko‘rsatadi: shaxsning o‘z mehnat mahsulotidan begonalashuvi mehnat natijasi ishchiga tegishli emas, u “boshqaniki”; mehnat jarayonining o‘zidan begonalashuv — mehnat rohat va o‘z-o‘zini namoyon qilish emas, balki majburiyat va azobga aylanadi; o‘z “tur-mohiyati” (Gattungswesen) dan begonalashuv — inson o‘z ijtimoiy va ijodiy tabiatidan uziladi; va nihoyat boshqa insonlardan begonalashuv — raqobat va ekspluatatsiya hamjihatlikni yo‘q qiladi. Marks nazariyasida kadrlar

salohiyati masalasi juda aniq: inson o‘z mehnatiga va uning natijalariga egalik qilmaganda, o‘z ijodiy kuchini to‘liq namoyon eta olmaydi. Begonalashgan mutaxassis — bu Marks tasvirlagan “to‘liq bo‘lmagan inson”, ya’ni o‘z salohiyatining faqat bir qismini namoyish qila oladigan, qolgan qismini esa “begona kuchlarga” topshirgan shaxsdir. Zamonaviy korporativ muhitda bu holat yangi shakllarda, ammo bir xil mazmunda davom etmoqda.

Durkheim: anomiya va ijtimoiy begonalashuv. Emil Durkheim (1897) begonalashuvni boshqa metodologik asos — ijtimoiy faktlar falsafasi orqali ko‘rib chiqadi. Uning “Le Suicide” asarida anomiya tushunchasi markaziy o‘rin tutadi: anomiya — bu jamiyatdagi me’yorlar tizimining buzilishi, shaxsning ijtimoiy tartibga bo‘lgan bog‘liqligining zaiflashuvi holati. Durkheimda begonalashuv individual psixologik holat emas u ijtimoiy strukturaning xususiyatidir, shaxsning emas, jamiyatning kasalligidir.

Durkheim metodologiyasida muhim falsafiy kashfiyot mavjud, u begonalashuvning sababi sifatida nafaqat iqtisodiy munosabatlarni (Marks singari), balki ma’naviy-normativ inqirozni ko‘rsatadi. Jamiyat a’zolari umumiy qadriyatlar, me’yorlar va maqsadlar yetishmasligi sababli bir-biridan uzilib qoladi. Bu g‘oya zamonaviy O‘zbekiston kontekstida ayniqsa dolzarb: an’anaviy qadriyatlar tizimi bilan zamonaviy hayot talablari o‘rtasidagi tafovut normativ vakuumni vujudga keltirmoqda va bu vakuum ijtimoiy yolg‘izlik hamda begonalashuvni kuchaytirmoqda.

Xaydegger va Sartr: ekzistensial yolg‘izlikning ontologiyasi. Martin Xaydegger (1927) “Mavjudlik va Vaqt” asarida yolg‘izlik va begonalashuv muammosini fundamental ontologiya darajasida ko‘rib chiqadi. Uning “Das Man” — “Odamlar”, “Hamma” — tushunchasi zamonaviy inson begonalashuvining falsafiy formulasidir. Xaydegger ta’kidlaydi: zamonaviy inson “Das Man”ga ommaning fikri, moda, umumiy stereotiplar singib ketadi va o‘z autentik mavjudligini yo‘qotadi. U hammadek yashaydi, hammadek o‘ylaydi, hammadek his etadi, ammo o‘ziday emas. Bu holat Xaydegger tili bilan aytganda ontologik begonalashuvdir. Xaydeggerning “Das Man” tushunchasi zamonaviy ish muhitida nihoyatda aniq namoyon bo‘ladi. Korporativ kiyim-kechak qoidalari, standartlashtirilgan ish tartiblari, KPI va baholash tizimlari — bularning barchasi mutaxassisni “Das Man”ga singdiradi. U o‘z original fikrlarini emas, “kutilayotgan” fikrlarni aytadi; o‘z kasbiy yo‘lini emas, “to‘g‘ri deb hisoblangan” yo‘lni tanlaydi. Kadrlar salohiyati esa autentik, o‘ziga xos, ijodiy mutaxassisda namoyon bo‘ladi «Das Man»ga singib ketganda esa yo‘qoladi.

Jan-Pol Sartr (1943) ekzistensial fenomenologiyasida yolg‘izlik va begonalashuv masalasi “boshqaning nigohi” tushunchasi orqali ochiladi. Sartrga ko‘ra, boshqa inson menga qarar ekan, u meni ob’ektga aylantiradi. Mening erkinligimni, o‘zligimni, subyektivligimni inkor etadi va meni muayyan kategoriyaga solib, belgilab qo‘yadi. “Jahannam — boshqa odamlar” bu ibora Sartrning o‘zaro begonalashuv falsafiy formulasidir. Insonlararo munosabatlarda erkinlik va tan olinish o‘rtasidagi doimiy ziddiyat yolg‘izlikni inson mavjudligining ontologik xususiyatiga aylantiradi. Sartr falsafasida muhim aksiologik xulosa ham mavjud: “mavjudlik mohiyatdan oldin keladi” tamoyiliga ko‘ra, inson o‘z mohiyatini o‘zi yaratadi. Begonalashgan mutaxassis esa bu erkinlikdan o‘z mohiyatini, kasbiy identifikatsiyasini, hayotiy yo‘nalishini o‘zi belgilash erkinligidan voz kechadi yoki uni yo‘qotadi. Bu sartr nuqtai nazaridan eng chuqur insoniy fojiadir.

Xonneth: tan olinish falsafasi va begonalashuv. Aksel Xonneth (1995) Frankfurt maktabining zamonaviy vakili sifatida begonalashuv muammosini “tan olinish uchun kurash” nazariyasi orqali yangi bosqichga olib chiqadi. Xonneth uchta tan olinish sferasiga ajratadi: muhabbat sferasi — shaxsiy munosabatlarda hissiy tan olinish, inson o‘zini yaqinlari tomonidan qadrlanganligini his etadi; huquq sferasi — fuqaroviy tenghlik asosida huquqiy tan olinish; hamjihatlik sferasi — jamiyatdagi ijtimoiy hurmat va kasbiy tan olinish. Xonneth nazariyasida ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv bu uchta sferadan birida yoki bir nechtasida tan olinishning rad etilishi holatidir. Kadrlar salohiyati kontekstida uchinchi sfera kasbiy tan olinish ayniqsa muhim. Mehnatiga munosib baho berilmagan, g‘oyalari e’tiborga olinmagan, kasbiy o‘sishi to‘sib qo‘yilgan mutaxassis Xonneth tili bilan aytganda “tan olinish inqirozi”ni boshidan kechiradi. Bu inqiroz esa begonalashuvga, kasbiy motivatsiyaning so‘nishiga va oxir-oqibat jamiyat salohiyatining eroziyasiga olib keladi.

Yolg‘izlikning Uch Ontologik Darajasi. Falsafiy an’anada yolg‘izlikning uch ontologik darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi daraja ijtimoiy yolg‘izlik: shaxsning ijtimoiy aloqalari soni va sifati jihatidan yetarli emasligi holati. Bu eng ko‘p o‘rganilgan va eng aniq kuzatiladigan daraja. Ikkinchi daraja ekzistensial yolg‘izlik: inson mavjudligining fundamental xususiyati sifatidagi yolg‘izlik — boshqa hech kim bizning ichki dunyomizga to‘liq kirisha olmaydi, bizning eng chuqur his-tuyg‘ularimizni to‘liq anglay olmaydi. Bu Sartr va Xaydegger tahlil qilgan ontologik yolg‘izlik. Uchinchi daraja kosmik yolg‘izlik: inson o‘zini koinotda yolg‘iz, Yaratuvchidan uzilib qolgan his etadigan metafizik holat.

Kadrlar salohiyatiga ta’sir nuqtai nazaridan birinchi ijtimoiy va ikkinchi ekzistensial darajalar ayniqsa muhimdir. Ijtimoiy yolg‘izlik mutaxassisni professional hamjamiyatdan, bilim almashish va hamkorlik imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Ekzistensial yolg‘izlik esa uning kasbiy faoliyatiga ma’no berishiga, o‘z ishiga ichki motivatsiya topishiga to‘sqinlik qiladi. Viktor Frankl (1959) logoterapiya nazariyasida ta’kidlaganidek, inson faoliyatining asosida ma’no qidirish yotadi. Ekzistensial yolg‘izlik sharoitida bu ma’no so‘nadi — “ekzistensial vacuum” vujudga keladi.

Begonalashuvning aksiologik o‘lchami: qadriyatlar inqirozi. Aksiologik nuqtai nazardan ijtimoiy begonalashuv — bu shaxsning qadriyat tizimining yemirilishi hodisasidir. Begonalashgan shaxs uchun mehnat, jamoa, kasbiy o‘sish va ijtimoiy mas’uliyat qadriyat sifatida mavjud bo‘lmaydi, ular faqat majburiyat yoki og‘irlik sifatida his etiladi. Bu holat Marks ta’riflaganidek, inson “ur-mohiyati”dan o‘z ijtimoiy va ijodiy tabiatidan uzilishining aksiologik ifodasidir.

Zamonaviy kadrlar salohiyati diskursida «engagement» — xodimning o‘z ishi va tashkilotiga hissiy va intellektual jihatdan qo‘shilganlik darajasi — markaziy tushunchaga aylangan. Ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv aynan shu “engagement”ni yo‘q qiladi: begonalashgan mutaxassis ishga “tana bilan” keladi, ammo “qalb bilan” emas. Bu Xaydeggerning “noautentik mavjudlik” tushunchasining kasbiy muhitdagi ko‘rinishidir. Xojibekov va Qurbonboev tadqiqotlarida bunday xodimlarning mehnat unumdorligi 30-40 foizga past ekanligi empirik jihatdan isbotlangan.

Kasbiy identifikatsiyaning yemirilishi. Kasbiy identifikatsiya — mutaxassisning o‘zini kasbi, tashkiloti va kasbiy hamjamiyati bilan identifikatsiya qilishi — kadrlar salohiyatining asosiy psixosotsiyal komponentidir. Ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv aynan shu identifikatsiyani ichidan buzadi. Sartr nazariyasida bu holat shaxsning o‘z kasbiy “loyihasidan” o‘zi uchun belgilagan maqsad va yo‘nalishidan voz kechishi sifatida namoyon bo‘ladi. Xaydegger tili bilan aytganda, mutaxassis autentik kasbiy mavjudlikdan o‘z original fikr va yondashuvlariga ega bo‘lishdan “Das Man”ga singib ketishga o‘tadi.

O‘zbekiston sharoitida kasbiy identifikatsiyaning yemirilishi ayniqsa o‘tkir muammodir. Yuldashova tadqiqotida zamonaviy O‘zbekiston yoshlarining sezilarli qismi o‘z kasbiy faoliyatini hayotiy qo‘ng‘iroq emas, balki majburiyat sifatida his etishi aniqlangan. Bu holat nafaqat individual muammo u kadrlar salohiyatining sifat jihatdan pasayishining strukturaviy ko‘rsatkichidir.

Ijtimoiy kapital va bilim almashishning yo‘qolishi. Fransua Burdiyo nazariyasida ijtimoiy kapital — shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlari orqali hosil bo‘ladigan resurs — kadrlar salohiyatining muhim komponenti hisoblanadi. Ijtimoiy yolg‘iz va begonalashgan mutaxassis uchun ushbu kapital tugab boradi: u professional hamjamiyatdan uzilib qoladi, mentor-mentee munosabatlaridan mahrum bo‘ladi, bilim almashish va hamkorlik imkoniyatlarini yo‘qotadi. Zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotda bilim almashish va hamkorlik kadrlar salohiyatining asosiy ko‘paytiruvchisidir. Ijtimoiy begonalashuv esa bu ko‘paytiruvchini nolga tushiradi. Qurbonboyeva va Ilhomov tadqiqotlarida begonalashgan xodimlar o‘z bilim va tajribalarini jamoada kamroq ulashishi, innovatsion g‘oyalar ilgari surishdan qo‘rqishi va natijada tashkilot umumiy salohiyatining pasayishiga sabab bo‘lishi aniqlangan.

Professional Burnout va Psixosomatik Oqibatlar. Viktor Frankl (1959) logoterapiya nazariyasida “ekzistensial vacuum” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi: hayotning ma’nosini yo‘qotgan inson passivlik, zerikish va ma’nosizlik holatiga tushadi. Kasbiy muhitda bu holat professional burnout kasbiy yonib ketish sindromining ekzistensial ildizi sifatida namoyon bo‘ladi. Begonalashgan mutaxassis uchun mehnat ma’nosini yo‘qotadi, energiya tugaydi, ijodiy salohiyat so‘nadi. Bundan tashqari, ijtimoiy yolg‘izlikning surunkali stressni keltirib chiqarishi, immunitet

tizimini zaiflashtirishini va turli psixosomatik kasalliklarga — yurak-qon tomir kasalliklari, depressiya, uyqu buzilishlari — sabab bo‘lishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistikasi ham psixosomatik muammolar bilan bog‘liq mehnatga layoqatsizlikning o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Sog‘lom bo‘lmagan, ichki motivatsiyasini yo‘qotgan mutaxassis esa o‘zining to‘liq salohiyatini hech qachon namoyish eta olmaydi.

Milliy va madaniy omillar: himoya va xavf manbalari. O‘zbekiston jamiyatining milliy va madaniy xususiyatlari ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv muammosida ikki qarama-qarshi rol o‘ynaydi. Bir tomondan, an’anaviy jamoachilik, mahalla instituti, keng oilaviy aloqalar va “o‘zaro yordam” madaniyati ijtimoiy yolg‘izlikka qarshi kuchli tabiiy to‘siq vazifasini bajaradi. Bu Durkheim tili bilan aytganda “mexanik hamjihatlik”ning hali tirik namunasi bo‘lib, G‘arb individualistik jamiyatida yo‘qolgan, ammo O‘zbekistonda saqlanib qolgan ijtimoiy resursdir. Boshqa tomondan, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari ushbu an’anaviy to‘siqlarni tez sur’atda yemirmoqda. Shaharlashib borayotgan, kichik kvartiralarda alohida yashaydigan, ijtimoiy tarmoqlar orqali “virtual” muloqotga o‘rganib qolayotgan yosh avlod uchun an’anaviy jamoachilik resurslariga kirish imkoniyati tobora qisqarmoqda. Natijada ular na an’anaviy (mahalla, katta oila), na zamonaviy (professional hamjamiyatlar, fuqarolik jamiyati) ijtimoiy to‘rlardan to‘liq foyda ko‘ra olmayaptilar, bu ikki tomonlama izolyatsiya eng xavfli holat hisoblanadi.

Mahalla instituti: strategik resurs. O‘zbekiston mahalla instituti ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuvning profilaktikasida noyob strategik resurs hisoblanadi. Xonneth tan olinish nazariyasi nuqtai nazaridan mahalla bu shaxsiy tan olinish va hamjihatlik sferasining organik sintezi. Mahallada inson nafaqat qo‘shni, balki inson sifatida ko‘riladi, qadrlanadi va kerak bo‘lganda qo‘llab-quvvatlanadi. Bu Xonneth nazariyasidagi uchinchi tan olinish sferasining “ijtimoiy hurmatning” eng organik ko‘rinishidir. Mahalla faollari va maslahatchilari orqali ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv holatidagi shaxslarni erta aniqlash, ularga psixosotsiyal yordam ko‘rsatish va ijtimoiy hayotga qaytarishning kompleks tizimini yaratish mumkin. «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari mahalla bilan hamkorlikda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishi lozim. Bu nafaqat ijtimoiy yordam, balki milliy iqtisodiy strategiyaning ajralmas qismidir.

Kasbiy muhitda autentiklikni tiklash. Xaydegger falsafasi asosida kasbiy muhitda autentiklikni tiklash mutaxassissning o‘z original fikr, yondashuv va ijodiy salohiyatini erkin namoyon qila olishini ta’minlash ijtimoiy begonalashuvga qarshi eng muhim strategik yo‘nalishdir. Buning uchun rahbar va HR mutaxassislari Xonneth nazariyasidagi “tan olinish” madaniyatini — xodim g‘oyalarini eshitish, kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va uning hissasini ijtimoiy jihatdan tan olish — korporativ madaniyatning asosiga aylantirishi lozim. Frankl logoterapiyasi nuqtai nazaridan esa kasbiy faoliyatga ma’no berishni ta’minlash — mutaxassis o‘z mehnatining jamiyat uchun ahamiyatini his etishini ta’minlash kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ekzistensial asosi hisoblanadi. Bu pul yoki lavozim bilan emas, balki mehnatning ma’nosi va tan olinishi bilan motivatsiya qilish strategiyasidir.

XULOSA. Ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuv — bu zamonaviy jamiyatning eng chuqur ijtimoiy-falsafiy muammolaridan bo‘lib, kadrlar salohiyatiga sistemali ta’sir ko‘rsatmoqda. Gegel va Marks begonalashuvning ontologik va ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini ochib bersa, Durkheim uning ijtimoiy-normativ o‘lchamini anomiyani tahlil qiladi. Xaydegger va Sartr esa begonalashuvning ekzistensial chuqurligini “Das Man”ga singib ketish va “boshqaning nigohi”da ob’ektga aylanishni falsafiy jihatdan tavsiflaydi. Xonneth tan olinish nazariyasi esa begonalashuvning asosida tan olinish sferalarining buzilishi yotishini ko‘rsatadi.

Kasbiy identifikatsiyaning yemirilishi, ijtimoiy kapital va bilim almashishning yo‘qolishi hamda professional burnout — bularning barchasi ijtimoiy yolg‘izlik va begonalashuvning kadrlar salohiyatiga ta’siri shakllaridir. Jamiyat barqarorligini ta’minlash uchun ushbu muammoni falsafiy-metodologik chuqurlik bilan tushunish va strategik darajada hal etish zarur.

O‘zbekistonning an’anaviy mahalla instituti, milliy-madaniy jamoachilik qadriyatlari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tarmog‘i bu yo‘nalishda noyob va samarali resurslar hisoblanadi. Kadrlar salohiyatini yuksaltirish — bu nafaqat kasb-hunar ko‘nikmalarini

rivojlantirish, balki eng avvalo ijtimoiy yolg‘izlikni bartaraf etish, tan olinish madaniyatini shakllantirish va har bir mutaxassisning o‘z mehnatiga ma’no berishini ta’minlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hegel G.W.F. Phenomenology of Spirit / Trans. A.V. Miller. — Oxford: Oxford University Press, 1807/1977.
2. Marx K. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844. — Moscow: Progress Publishers, 1844/1959.
3. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. — Glencoe: Free Press, 1897/1951.
4. Heidegger M. Being and Time / Trans. J. Macquarrie & E. Robinson. — Oxford: Blackwell, 1927/1962.
5. Sartre J.-P. Being and Nothingness. — New York: Philosophical Library, 1943/1956.
6. Honneth A. The Struggle for Recognition: The Moral Grammar of Social Conflicts. — Cambridge: MIT Press, 1995.
7. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — New York: Beacon Press, 1959.
8. Bourdieu P. The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. — 1986. — P. 241–258.
9. Xojibekov R., Qurbonboev S. Kasbiy muhitda ijtimoiy izolyatsiya va unumdorlikka ta’siri // Central Asian Journal of Academic Research (CAJAR). — 2025. — №2.
10. Yuldashova M. Zamonaviy O‘zbekistonda yolg‘izlik hodisasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. — Toshkent: Fan, 2026.
11. Qurbonboyeva N., Ilhomov J. Yoshlar o‘rtasida begonalashuv va uning ijtimoiy oqibatlari // O‘zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali. — 2024. — №4. — B. 45–53.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik ma’lumotlari. — Toshkent, 2024.

IJTIMOIY- SIYOSIY JARAYONLARNING RIVOJLANISHIDA FOTOGRAFIK MANBALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

J.G‘.Inayatov
Sarbon universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti t.f.f.d.,(PhD)

Annotatsiya.Ushbu maqolada fotografik manbalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni anglash va tahlil etishda alohida o‘rin tutuvchi vizual dalil sifatida ko‘rib chiqiladi. Fotografiya oddiy tasvir emas, balki voqelikni talqin qilish va uni jamoatchilik ongiga yetkazish mexanizmi ekanligi asoslab beriladi. Xususan, O.Fotografii asari muallifi Susan Sontag ilgari surgan nazariy qarashlar asosida fotografik manbalarning idrokni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada fotografik bilimlarning tarixiy rivoj bosqichlari, uning siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatidagi funksiyalari hamda raqamli muhitdagi transformatsiyasi keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: fotografik manbalar, vizual tarix, ijtimoiy jarayonlar, siyosiy kommunikatsiya, propaganda, ommaviy axborot vositalari, raqamli media.

XX asrga kelib fotografik manbalar insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan hodisalardan biriga aylandi. U endilikda faqat estetik zavq uyg‘otuvchi san’at turi emas, balki voqelikni qayd etish, uni talqin qilish va keng jamoatchilikka yetkazish imkonini beruvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida shakllandi. Ayniqsa, “On Photography” (Fotosurat haqida) kitob muallifi Susan Sontag qayd etganidek, fotografiya oddiy aks ettirish vositasi bo‘lib qolmaydi - u insonning borliqni qanday ko‘rishi va tushunishini ham bilvosita yo‘naltiradi. Demak, tasvir faqat haqiqatni ko‘rsatmaydi, balki uni ma’lum ma’noda “yaratadi”.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, fotografik manbalar ijtimoiy ong shakllanishining faol ishtirokchisiga aylanadi. U real voqelikni tanlab, uni ma’lum kontekstda taqdim etadi va natijada muayyan ideologik yoki madaniy qarashlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Fotografik tasvir - bu nafaqat ko‘riladigan narsa, balki o‘qiladigan, talqin qilinadigan va ko‘pincha bahs uyg‘otadigan axborot shaklidir.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida fotografik manbalarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. U ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, voqealarni tezkor aks ettirish va ularni ommaga yetkazishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Fotografik manbalarning eng muhim xususiyatlaridan biri - uning tezkorligi va ta’sir kuchidir: birgina tasvir ba’zan uzoq izoh va tahlillardan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Vizual axborot inson ongida tezroq qayta ishlanadi, hissiy jihatdan chuqurroq iz qoldiradi va ko‘pincha qaror qabul qilish jarayoniga ham ta’sir etadi.

Shu bois fotografik manbalarning nafaqat tarixiy voqealarni qayd etuvchi vosita, balki ularni anglash, baholash va talqin qilishning samarali ilmiy manbasi sifatida ham e’tirof etiladi. U orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar dinamikasini kuzatish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va jamoatchilik fikrining shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish mumkin. Natijada fotografik bilimlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda vizual manba sifatida alohida o‘rin egallaydi.

Fotografiyaning shakllanish jarayoni XIX asrga borib taqaladi, biroq uning jamiyatdagi haqiqiy “faollashuvi” ancha tez sodir bo‘lganini ko‘rish mumkin. Dastlab texnik ixtiro sifatida qabul qilingan bu vosita qisqa fursatda insoniyatning tarixiy xotirasini qayd etuvchi eng ishonchli vizual mexanizmlardan biriga aylandi. Ayniqsa, keskin burilishlarga boy davrlar - urushlar, inqiloblar, ijtimoiy silkinishlar - fotografik bilimlarning imkoniyatlarini yanada yaqqol namoyon etdi. Chunki aynan shunday paytlarda tasvir voqelikni nafaqat aks ettiradi, balki uni “muzlatib”, keyingi avlodlar uchun saqlab qoladi.

Fotografik tasvirlarning qadri shundaki, ular tarixni abstrakt tushunchalar emas, balki aniq ko‘rinishlar orqali anglash imkonini beradi. Birgina surat orqali davrning iqtisodiy tangligi, ijtimoiy keskinligi yoki kundalik hayot ritmini his qilish mumkin. Bu - yozma manbalarda ko‘pincha yo‘qolib ketadigan “tirik tafsilotlar”ni saqlab qolish imkoniyatidir.

Buni Vietnam urushi davrida olingan mashhur Napalm qizi misolida yanada aniqroq ko‘rish mumkin. Ushbu surat oddiy hujjat emas - u butun bir davrning ruhiy holatini ifodalagan vizual dalildir. Undagi dramatizm urushning statistik yoki rasmiy tasviridan ancha kuchliroq ta’sir uyg‘otadi. Natijada, bu tasvir nafaqat voqeani ko‘rsatdi, balki unga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartirdi. Jamoatchilik ongida urushga nisbatan keskin salbiy qarash shakllanib, siyosiy qarorlar muhokamasiga ham bevosita bosim paydo bo‘ldi. Shu jihatdan fotografik tasvirlar passiv kuzatuvchi emas, balki faol ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Fotografik manbalar ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda ham o‘ziga xos “ko‘rinadigan dalillar bazasi”ni yaratadi. Ular orqali jamiyat ichidagi tafovutlar, yashash sharoitlari, urbanistik o‘zgarishlar yoki migratsiya oqimlarini ko‘z bilan “o‘qish” mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, XX asr boshlarida sanoatlashuv jarayonini aks ettirgan fotosuratlar bu borada muhim empirik asos bo‘lib xizmat qilgan. Ishchilarning turmushi, mehnat sharoitlari, yashash muhiti tasvirlar orqali ochib berilgan va bu materiallar keyinchalik ijtimoiy tengsizlikni tushunish hamda uni yumshatishga qaratilgan siyosiy qarorlar ishlab chiqilishida muhim rol o‘ynagan.

Shu tariqa, fotografik manbalar nafaqat tarixni “ko‘rsatadi”, balki uni anglash usulini ham o‘zgartiradi. U faktni tasvirga aylantiradi, tasvirni esa ijtimoiy fikrga ta’sir qiluvchi kuchga aylantiradi.

Siyosiy jarayonlar kontekstida fotografiya oddiy kuzatuv vositasi bo‘lib qolmaydi - u mazmun ishlab chiqaruvchi va uni boshqaruvchi kuchga aylanadi. Tasvir bu yerda faktni qayd etishdan ko‘ra ko‘proq narsani bajaradi: u ma’no yaratadi, urg‘u qo‘yadi va auditoriyani ma’lum talqinga yo‘naltiradi. Shu bois fotografiya ko‘pincha propaganda va ideologik ta’sir mexanizmining ajralmas qismi sifatida ishlaydi. Rasmiy suratlar orqali siyosiy yetakchilar obrazini “montaj qilish”, ularni barqarorlik, ishonch yoki kuch timsoli sifatida ko‘rsatish amaliyoti aynan shu vizual strategiyaga tayanadi.

Biroq fotografiyaning ta’siri faqat yuqoridan pastga qarab ishlamaydi. Ba’zi tasvirlar borki, ular o‘z-o‘zidan ijtimoiy rezonans uyg‘otadi va mavjud siyosiy muhitga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Tyananmen voqealari jarayonida paydo bo‘lgan Tank qarshisidagi odam surati shunchaki kadr emas - u qarshilikning siqilgan, ammo nihoyatda kuchli ifodasidir. Unda qurolsiz insonning tizim oldida turishi tasvirlanadi, lekin aynan shu soddalik uning global ramzga aylanishiga sabab bo‘lgan. Bu kabi tasvirlar siyosiy nutqdan mustaqil ravishda ham fikr shakllantira oladi.

Fotografik manbalar, shu bilan birga, tarixiy xotirani “ko‘rinadigan shaklga” keltiradi. Har bir surat - bu vaqtning muzlatilgan bo‘lagi, o‘tmishning bevosita guvohi. Ular orqali tarix nafaqat eslab qolingan, balki qayta ko‘riladigan va qayta talqin qilinadigan hodisaga aylanadi. Natijada jamiyat o‘z o‘tmishini faqat matnlar orqali emas, balki tasvirlar orqali ham anglaydi. Bu esa kollektiv xotiraning shakllanishida fotografiyani muhim vositaga aylantiradi: u tarixni abstrakt emas, balki seziladigan va ko‘riladigan tajribaga aylantiradi.

Raqamli texnologiyalar davriga kelib esa fotografik manbalarning tabiati yanada o‘zgardi. Endi tasvir yaratish va uni tarqatish imkoniyati professional doiradan chiqib, deyarli har bir inson qo‘liga o‘tdi. Smartfonlar orqali olingan suratlar real vaqt rejimida global axborot oqimiga qo‘shilmoqda. Bu esa fuqarolik jurnalistikasining kuchayishiga, axborotning tezkorligi va ochiqligining oshishiga olib keldi. Endi voqea markazida bo‘lish uchun maxsus texnika emas, balki mavjudlikning o‘zi kifoya.

Shu bilan birga, bu erkinlik yangi mas’uliyatni ham yuzaga keltirdi. Tasvirlar haddan tashqari tez tarqaladigan muhitda ularning haqqoniyligi, konteksti va talqini masalasi dolzarblashadi. Shunday ekan, zamonaviy fotografik manbalarning nafaqat ko‘rish, balki tanlab ko‘rish, tahlil qilish va shubha bilan qarash madaniyatini ham talab qiladi.

Raqamli fotografiyaning jadal rivoji tasvirning imkoniyatlarini kengaytirgani kabi, uning ishonchliligiga nisbatan savollarni ham keskinlashtirdi. Endi surat - bu faqat qayd etilgan lahza emas, balki oson tahrirlanadigan, qayta ishlanadigan va hatto butunlay sun’iy tarzda yaratilishi mumkin bo‘lgan konstruksiyaga aylandi. Shu bois vizual materialga mutlaq haqiqat sifatida qarash tobora murakkablashib bormoqda. Manipulyatsiya, kontekstni buzib ko‘rsatish yoki maqsadli ravishda noto‘g‘ri talqin qilish holatlari fotografiyani oddiy axborot manbasidan tortib, bahsli kommunikativ vositaga aylantirmoqda.

Aynan shunday sharoitda fotografik manbalarni tanqidiy o‘rganish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tasvirni ko‘rishning o‘zi yetarli emas - uni “o‘qish”, ya’ni ichki tuzilmasini va yashirin ma’nolarini anglash zarur. Ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar ham aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Vizual tahlil tasvirning kompozitsiyasi, detallar tizimi va semantik qatlamini ochishga xizmat qilsa, kontekstual yondashuv surat qaysi tarixiy va ijtimoiy sharoitda yaratilganini aniqlash orqali uning asl mazmunini tiklashga yordam beradi. Diskurs tahlili esa tasvir ortida turgan g‘oyaviy yo‘nalishni, unda yashiringan ideologik signallarni aniqlash imkonini beradi. Komparativ yondashuv orqali esa turli davr va manbalarga oid suratlarni solishtirish natijasida yanada chuqurroq ilmiy xulosalarga kelish mumkin bo‘ladi.

Xulosa: Umuman olganda, fotografik manbalar ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni o‘rganishda o‘ziga xos va muqobil bilim manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Ular voqelikni vizual shaklda qayd etish bilan cheklanmay, uni talqin qilish, qayta ishlab chiqish va jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Aynan shu jihati bilan fotografik manbalar tarixiy haqiqatni anglash, ijtimoiy kayfiyatni tushunish va siyosiy jarayonlarning ichki dinamikasini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, fotografik manbalarning anglash jarayoni oddiy kuzatuvdan ilmiy tafakkur darajasiga ko‘tariladi. Endi u nafaqat ko‘riladi, balki tahlil qilinadi, savol ostiga olinadi va izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sontag, S. On Photography. New York, 1977.
2. Barthes, R. Camera Lucida. London, 1980.
3. Berger, J. Ways of Seeing. London, 1972.

4. Zelizer, B. Remembering to Forget: Holocaust Memory through the Camera’s Eye. Chicago, 1998.
5. Mirzoev, A. Ijtimoiy tadqiqot metodologiyasi. Toshkent, 2020.
6. Karimov, Sh. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi. Toshkent, 2019.